

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

IMIRSINOVA AZIZAXON ASHUROVNA

**POACEAE BARNH. OILASI *TRITICEAE* DUM. TRIBASI AYRIM
TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.10 – Ekologiya

BIOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Imirsinova Azizaxon Ashurovna Poaceae Barnh. oilasi <i>Triticeae</i> Dum. tribasi ayrim turlarining bioekologik xususiyatlari	3
Имирсинова Азизахон Ашуровна Биоэкологические особенности некоторых видов трибы <i>Triticeae</i> Dum. сем. Poaceae Barnh.	28
Imirsinova Azizaxon Ashurovna Bioecological features of some species of the tribes <i>Triticeae</i> Dum. family Poaceae Barnh.	55
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	59

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

IMIRSINOVA AZIZAXON ASHUROVNA

**POACEAE BARNH. OILASI *TRITICEAE* DUM. TRIBASI AYRIM
TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.10 – Ekologiya

BIOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/B63 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb- sahifasi (www.nauka.nuu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Qarshiboev Hazratqul Qilichevich**
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Alimjanova Xolisxon Alimjanovna**
biologiya fanlari doktori, professor;

Xo‘janazarov O‘ktam Eshtemirovich
biologiya fanlari doktori, dotsent;

Maxkamov Trobjon Xusanboyevich
biologiya fanlari doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «22» avgust kuni soat 10-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, O‘zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: (+99871-246-67-72, e-mail: nuu-ekologiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy. Tel.: (99871-246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «30» iyun kuni tarqatildi.
(2025 yil «30» iyun kuni 29-raqamli reestr bayonnomasi).



Рахимова Тура
Илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш раиси,
биология фанлари доктори, профессор
Аллабердиев Рустамжон Хамраевич
Илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш котиби
биология фанлари номзоди, доцент
Жаббаров Зафаржон Абдукаримович
Илмий даражалар берувчи
Илмий кенгаш қошидаги илмий семинар раиси,
биология фанлари доктори, профессор

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda insoniyat tabiatdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanishi, XXI asrga kelib hatto undan ortiqroq talab etishi darajasiga yetib keldiki, bu ekologik muvozanatning izdan chiqishiga, buzilishiga sabab bo'ldi. Tabiatning muhim komponenti hisoblangan o'simliklar dunyosi ham hozirgi kunda jiddiy o'zgarishlarga uchrayotgani dolzarb muammoligicha qolmoqda. Ekologik shart-sharoitlarning o'zgarishi hisobiga alohida hududlarning floristik tarkibi, areallari va o'simlik resurslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda aholi sonining oshib borishi, global iqlim o'zgarishi, cho'llanish va qurg'oqchilikning kuchayishi, tirik organizmlar taksonomik tarkibining barqaror saqlanishi, mahalliy populyatsiyalarda ro'y berayotgan jarayonlar, ularning tabiiy va antropogen omillar bilan bog'liqligini monitoring qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi tufayli istiqbolli o'simliklarni yetishtirish, ularni introduksiya qilish hamda zararli turlariga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasiga kiruvchi ayrim turlarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, ularning yem-xashak hamda ozuqabop o'simlik sifatidagi rolini kuchaytirish, madaniy va yovvoyi turlarning o'sishi va rivojlanishini tabiiy va ex-situ sharoitlarida yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda o'simlik dunyosi bioxilma-xilligini aniqlash, turli ekologik sharoitlarda yetishtirish va o'simlik turlarini muhofaza qilish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, jumladan Poaceae Barnhart oilasining turlarini «*ex situ*» sharoitida yetishtirish, ayniqsa mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos yem-xashak va oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalar qo'lga kiritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-son Farmoni¹da «Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish», «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash», «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, cho'l hududlarida o'simliklarni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 83-sonli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.

Qarorida²gi «Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish» vazifalaridan kelib chiqqan holda, har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos oziq-ovqat va yem-hashak ekinlarining istiqbolli navlarini yaratish, ularni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5863-son Farmoni³da «...atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, atrof muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, yer qa‘ri, bioxilma-xillik, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta‘sir hamda boshqa salbiy ta‘sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta‘minlash» kabi ustuvor vazifalar beliglangan bo‘lib, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharxi⁴. Poaceae oilasi turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning yem-xashak hamda ozuqabop o‘simlik sifatidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar jahonning ilg‘or ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Agricultural and Mechanical University (AQSh), Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), University Agriculture and Agri-Food Canada (Kanada), The Institute of Agricultural Engineering (Angliya), Institute of Botany (Xitoy), Royal Botanical Garden Edenburg (Shotlandiya), Rossiya donli ekinlar ITI, Butunrossiya o‘simliklarni himoya qilish ITI, Krasnodar dehqonchilik ITI (Rossiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), O‘zR FA Botanika instituti va O‘zbekiston Milliy universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 83-son Qarori.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5863-son Farmoni.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.works.doklad.ru>; www.dissercat.com; <http://www.researchget.com>; <http://www.fundamental-research.ru>; <http://www.faostat.fao.org>; www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Bug‘doydoshlarning turli ekologik muhitlarga moslashish xususiyatlarini oshirish, ularning o‘sishi va rivojlanishini jadallashtirish, tuproqlarni rekultivatsiya qilishda oila vakillarining o‘rnini aniqlash, hosildorlik imkoniyatlarini oshirish, sho‘rga va qurg‘oqchilikka chidamli navlarni yaratish, turlarning genetik jixatdan sofliğini ta‘minlash maqsadida ularning yovvoyi ajdodlaridan foydalanishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: oila vakillarining reproduktiv biologiyasi, sistematikasi, hayotiy shakllari evolyutsiyasi va ontogeneziga oid tadqiqotlar rossiyalik olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, donli ekinlarning don sifatini oshirish bo‘yicha natijalar olingan (Ayova shtati universiteti, AQSh; Kanada qishloq xo‘jaligi Departamenti, Kanada); turli ekologik muhitlarda o‘sovchi turlarning taksonomiyasi va tarqalish xususiyatlari ochib berilgan (Botanika instituti, Xitoy); bug‘doyni ildizdan tashqari oziqlantirish bo‘yicha olingan natijalar qurg‘oqchilik sharoitida oziq-ovqat etishtirishni ta‘minlashga asoslangan (Rossiya Qishloq xo‘jalik akademiyasi; Krosnodar davlat Agrar universiteti, Rossiya).

Dunyoda bug‘doydoshlar oilasi vakillarining bioekologik xususiyatlari, fitotsenozlar bioxilma-xilligini saqlashdagi rolini aniqlash, mavjud yaylovlardan samarali foydalanmaslik va ularga antropogen transformatsiyaning kuchli ta‘siri oqibatida senopopulyatsiyalarda inqiroziy holatlarning mavjudligi, turlarning tabiiy ko‘payish imkonining kamayib borayotganligi bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: dunyo mamlakatlarining em-xashak va donli ekinlar bioekologiyasi bo‘yicha o‘zaro ma‘lumot almashishi va hamkorliklarini rivojlantirish; muayyan tuproq-iqlim sharoiti uchun mos va tezpushar navlarni yaratish; ekologik toza, sifatli, arzon va yuqori hosil olishni ta‘minlovchi resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish; bioxilma-xillikni saqlash va chorvachilikda yem-xashak o‘simliklarining o‘rnini o‘rganish borasida ilmiy-tadqiqot usullarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning qator mamlakatlarida Bug‘doydoshlarning turli ekologik muhitlarda tarqalgan vakillarining bioekologik xususiyatlari xorijiy yetakchi olimlar N.N. Svelev (1976), A.G. Huber, D. Grabe (1987), T.B. Batigina (1998), V.R. Chelak (1991), reproduktiv biologiyasi A.N. Ponomarev (1960, 1964), N.B. Nikiforova (1970), A.V. Agafonov (2004), o‘simliklarining moslashish xususiyatlari N.S. Chistyakova (2009), urug‘ mahsuldorligi G.A. Zueva (2017), ularning yovvoyi ajdodlari bo‘yicha tadqiqotlar R.O. Davoyan (2012) tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamizda yaylovlar maydonining inson va texnogen omillarning salbiy ta‘siri natijasida muayyan darajada inqirozga yuz tutayotganligi bo‘yicha bir qator keng doiradagi tadqiqotlar T. Raximova (2011), F.U. Xasanov (2011), G.M. Duschanova (2016), X.F. Shomurodov (2018) tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Yaylov o‘simliklarning reproduksiyasi H.Q. Qarshiboev (2014), J.H. Qarshiboev (2020), Orolbo‘yining inqirozga uchragan yerlarini yaxshilashda yem-xashak o‘simliklaridan foydalanish R.P. Aymuratov (2020), tog‘oldi yaylovlarining zamonaviy holatini baholash va yaylovlaridan samarador foydalanish yo‘llarini

ishlab chiqish O‘E.Xo‘janazarov (2022), O‘zbekistonda invaziv turlar ichida Poaceae oilasi vakillarining o‘rni bo‘yicha T.X.Maxkamov (2024) ning ishlari mavjud.

Ta’kidlash zarurki, bu ilmiy ishlar O‘zbekistonda Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha rejali tadqiqotlar olib borilmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli, O‘zbekistonning turli ekologik hududlaridagi o‘simliklar qoplaminig tashkil topishida Poaceae oilasining tutgan o‘rnini aniqlash, bioekologik qonuniyatlarini o‘rganish ilmiy-amaliy va nazariy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining «Global iqlim o‘zgarishi sharoitida flora va faunaning bioekologik xossa-xususiyatlarini tadqiq qilish, bioxilma-xillikni saqlash, tuproqlarning ekologik holatini baholash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish» ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida (2020-2024) va Andijon davlat universitetining A-8-11. «Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasining yovvoyi turlari genofondini *ex-situ* da saqlash» (2015-2017) mavzuidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasiga kiruvchi turlarning bioekologik xususiyatlarini aniqlash va tabiiy hamda *ex-situ* sharoitida muvaffaqiyatli tarqalish sabablarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turlarni turli ekologik sharoitlarda o‘shishi va rivojlanishini tadqiq etish asosida bioekologik xususiyatlarini ilmiy asoslash;

turlarda gulning ochilish jarayoni, gullash tiplari va chang sifati ko‘rsatkichlarining muhitga bog‘likligini aniqlash;

mavsumiy va sutkalik gullash maromlarini qiyosiy tahlil etish;

urug‘larning morfometrik belgilari, unuvchanligi, potensial va real urug‘ mahsuldorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash;

turlarning biometrik ko‘rsatkichlarini ekologik omillarga bog‘liq holda tahlil etish;

madaniy turlar genofondini saqlash, mahalliy iqlim-sharoitiga mos navlarni yaratish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasining ayrim turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bug‘doydoshlar oilasining o‘rganilgan tur va navlarining morfologiyasi, reproduktiv biologiyasi, bioekologiyasini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada laboratoriya va dala tadqiqotlari, biomorfologik, fenologik, populyatsion biometrik, qiyosiy tahliliy, statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O‘zbekistonning turli ekologik hududlarida Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasi ayrim vakillarining bioekologik xususiyatlari tabiiy va *ex-situ* sharoitida o‘rganilib, triba vakillarining turli ekstremal sharoitlarga tez moslashishlari isbotlangan;

madaniy turlarning mahalliy hamda xorijiy navlarida rivojlanish maromlarining bir me‘yorda ketishi va urug‘ mahsuldorligining yuqori bo‘lishi muvaffaqiyatli introduksiya belgisi ekanligi aniqlangan;

gullarning akrobazipetal tartibda, ko‘proq kleystogam tipda ochilishi ushbu oilaga kiruvchi navlarning o‘z-o‘zidan changlanuvchi o‘simliklarga xos bo‘lgan belgi bo‘lib, navlarning genetik jihatdan sof holda saqlanish imkonlari kengligi isbotlangan;

potensial va real urug‘ mahsuldorligi, urug‘ sifatining yuqori bo‘lishi turning ushbu sharoitlarga moslashuvchanligini ko‘rsatuvchi belgi ekanligi aniqlangan;

yem-xashak o‘simliklari bioxilma-xilligida bug‘doydoshlar oilasi vakillarining ustunligi tadqiqot hududlarida antropogen bosimning kuchli ekanligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli ekologik hududlar va *ex-situ* sharoitida turlarning bioekologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish asosida *Triticeae* Dum. tribasi vakillarini o‘rganish va monitoring qilishda foydalanish maqsadida asosiy ilmiy manbaa sifatida tayanch turlarning jonli kolleksiyasi yaratilgan;

gullash biologiyasi va urug‘ mahsuldorligi natijalari asosida mahalliy iqlim sharoitiga mos, sho‘rga, qurg‘oqchilikka va kasalliklarga chidamli, ozuqaviyligi yuqori navlarni olish maqsadida chatishtirish ishlarini olib borish uchun madaniy turlar seleksiyasi va urug‘chiligi uchun birlamchi material sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

Hordeum vulgare ning yovvoyi ajdodi hisoblangan *Hordeum vulgare subsp. spontaneum* ning O‘zbekiston florasida mavjudligi, tabiiy va *ex-situ* sharoitida bioekologik ko‘rsatkichlarining yuqoriligi, mahalliy arpa navlari genotipini kuchaytirishning ishonchli manbai ekanligi isbotlangan;

o‘rganilgan turlarning tabiiy sharoitga nisbatan introduksiya sharoitida yuqori natijalarni ko‘rsatishi, o‘simliklarning turli ekstremal sharoitlarga moslashishi asosida ushbu oila vakillari nafaqat oziq-ovqat va qimmatli yem-xashak o‘simligi sifatida, balki ko‘kalamzorlashtirish va landshaft dizayni ko‘rkamligini oshirish orqali ekologik holatni yaxshilash maqsadlarida ham foydalanish mumkin ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan an’anaviy va zamonaviy usullar hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, dissertatsiya tadqiqoti amaliy natijalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va ularning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasi ayrim vakillarning bioekologiyasiga oid ma'lumotlar va natijalar, ulardan kelib chiqadigan xulosalar istiqbolda nafaqat ushbu triba, balki to'liq Poaceae Barnhart oilasi bo'yicha umumiy bioekologik qonuniyatlarni aniqlashga, oilaning evolyutsiyasi, seleksiyasi va introduksiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun fundamental manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasi ayrim vakillarning *ex-situ* sharoitida kolleksiyasini yaratish orqali o'simliklarning tabiiy populyatsiyalarini qayta tiklash va manzarali maysazorlar tashkil etishda ularning urug'laridan foydalanish, boshqning o'rta qismida chatishtirish ishlarini olib borish yo'li bilan mahalliy navlarni olish orqali hosildorlikni oshirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasi ayrim turlarining bioekologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

Triticeae Dum. tribasiga mansub turlarning *ex-situ* sharoitida yetishtirilgan urug'lari Andijon viloyatining antropogen transformatsiya natijasida tabiiy holati buzilgan 100 ga dan iborat adir zonalariga ekilib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2020 yil 15 iyundagi 02-02/8-854-sonli ma'lumotnomasi). Natijada urug' ekilgan maydonlarda o'simliklarning tabiiy populyatsiyalarini qayta tiklash imkonini bergan;

Andijon shahrining 1 ga yer maydonini ko'kalamzorlashtirish uchun *Elymus repens* (L.) Gould. va *Hordeum murinum subsp. leporinum* (Link) Arcang. ning urug'laridan manzarali maysazorlar tashkil etilgan (O'zR Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2020 yil 15 iyundagi 02-02/8-854-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Daniyadan keltirib ekilayotgan Sportmaster urug'i bilan solishtirilganda iqtisodiy tejamkorlik 6,5 barobarga erishish imkonini bergan;

Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasi turlarining fitosenozlar bioxilma-xilligini saqlashdagi rolini aniqlashda mavjud yaylovlardan samarali foydalanmaslik va ularga antropogen transformatsiyaning kuchli ta'siri oqibatida senopopulyatsiyalarda inqiroziy holatlarning mavjudligi, turlarning tabiiy ko'payish imkonining kamayib borayotganligi bo'yicha olingan ma'lumotlar 2012-2016 yillarda bajarilgan F-5-01 raqamli «Janubi-G'arbiy Tiyon-Shon o'simliklar qoplaminin fitotsenotik va populyatsion-ekologik qonuniyatlari» mavzusidagi fundamental loyihada yaylovlar holatini baholashda foydalanilgan (O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 5 iyundagi 89-03-1925-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yaylovlarda o'simliklar bioxilma-xilligini oshirish uchun zudlik bilan Poaceae Barnhart oilasi *Triticeae* Dum. tribasi turlarini ko'paytirish zarur ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

«Fargʻona vodiysida tarqalgan bugʻdoydoshlar oilasi ayrim turlarining aniqlagichi» nomli dasturiy taʼminotdan maxsus elektron qoʻllanma sifatida «Bir urugʻpallali oʻsimliklar: bugʻdoydoshlar oilasi vakillarining sistematikasi, morfologiyasi» nomli mavzulardagi amaliy mashgʻulot darslarida foydalanilgan (OʻzR Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020 yil 5 iyundagi 89-03-1925-sonli maʼlumotnomasi). Natijada «Botanika» fanidan amaliy mashgʻulotlar olib borish jarayonida bugʻdoydoshlar oilasi vakillarining sistematik oʻrnini aniqlashda ushbu qoʻllanmada keltirilgan ilmiy asosda tasdiqlangan sistematik va morfologik belgi-xususiyatlaridan foydalanish imkoni yaratilgan;

yangi navlarni yaratishda, duragaylash uchun boshqning oʻrta yarus gullaridan foydalanish kerakligi haqida ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan yumshoq bugʻdoyning «Asr», «Davr» va «Shodlik» navlari yaratilgan (OʻzR Qishloq xoʻjalik vazirligining 2020 yil 24 iyundagi 02/021-1856-sonli maʼlumotnomasi). Natijada «Asr» navi 53,7 ming gektar, «Davr» navi 20,3 ming gektar va «Shodlik» navi 810 gektarga ekilib, 65-75 sentnerdan hosil olish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta xalqaro va 28 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 62 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta monografiya, 1 ta patent, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan 14 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 177 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Bugʻdoydoshlar oilasi turlarining bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish masalalari**» deb nomlangan birinchi bobida Poaceae oilasini oʻrganish boʻyicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar va turli ekologik hududlarda tarqalgan oʻsimliklarni oʻrganish tarixi, xalq xoʻjaligidagi ahamiyatiga oid adabiyot manbaalarining tahlili keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududlari va oʻrganilayotgan turlarning qisqacha tavsifi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlari, tadqiqot usullari va *Triticeae* Dum. tribasi ayrim vakillarining qisqacha ekologo-morfologik tavsifi bayon qilingan.

«**Turli ekologik muhit taʼsirida turlarning oʻsishi va rivojlanishi**» deb nomlangan uchinchi bobida tabiiy sharoitda va uch xil ekologik muhitdagi ex-situ sharoitida amalga oshirilgan tajribalar, yaʼni Ohangaron vodiysiga qarashli Angren tajriba maydoni, Toshkent shahrida joylashgan OʻzMU Botanika bogʻi hamda Fargʻona vodiysining AndDU hududida joylashgan Botanika bogʻi tajriba

maydonlarida ekib o'rganilgan turlarning rivojlanish maromlari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

«*Triticeae* tribasi ayrim turlarining ekologik tahlili» deb nomlangan birinchi bo'limida ilmiy manbaalar va tabiatga uyushtirilgan ekspeditsiyalar mobaynida to'plangan materiallar asosida turlar tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq 4 ta, tuproqning namlik darajasiga bog'liq 3 ta, tuproqdagi tuzlarning miqdoriga bog'liq 2 ta, tuproqdagi oziq moddalarning miqdoriga bog'liq 2 ta va suvga nisbatan talabchanligiga bog'liq 2 ta ekologik guruhlar ajratildi (1-rasm).

Tadqiqot hududlarida tarqalgan o'simliklarning aksariyatini turli darajada sho'rlangan tuproqlarda va qumlarda o'sishga moslashgan turlar tashkil qiladi. Bu hol sho'rlangan tuproqlarni o'zlashtirishda, fitomelioratsiya ishlarini olib borishda va ko'chma qumlarni va barxanlarni mustahkamlashda istiqbolli turlarni tanlash imkonini beradi.




1-rasm. Tuproqning granulometrik tarkibiga bog'liq ekologik guruhlar

Har bir guruh vakillari o'ziga xos ekologik va tuproq sharoitlarida o'sishga moslashganligi galofil o'simliklar qoplami vakillarining psammofil o'simliklar qoplami vakillari bilan o'rin almashishi kabi tabiiy qonuniyat orqali amalga oshishi tadqiqotlar mobaynida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi (2-rasm).

«Angren shahri *ex-situ* sharoitida turlarning o'sishi va rivojlanishi» deb nomlangan ikkinchi bo'limida tadqiqot ob'ektlarining Angren shahri *ex-situ* sharoitidagi o'sishi va rivojlanishini o'rganish natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi: kuzatuvning har ikki yilida ham turlar ichida *T. intermedium subsp. intermedium* erta va *H. vulgare subsp. spontaneum* da donning eng kech yetilishi kuzatildi. Qolgan turlarda esa donlar oraliq holatda pishib yetildi.

Unib chiqish fazasi. Kuzatuv olib borilgan 2009 yilda havo harorati +10...+13°C ni tashkil etdi va urug'larning yoppasiga unib chiqishi urug'

ekilgandan 6-8 kun keyin, 2010 yil esa +9...+10°C li havo haroratida 7-9 kundan keyin kuzatildi.



2-rasm. Turlarning ekologik guruhlari.

Tuplanish fazasida havo harorati +8...+10°C bo'lib, bu harorat tuplanishning jadal sur'atda o'tishi uchun eng maqbul harorat hisoblanadi hamda tuplanish 12-15 kun davom etdi. 2010 yilda esa o'rtacha harorat +10...+12°C ni tashkil etib, kuzatilayotgan navlarda kuzgi tuplanish 16-18 kun bo'ldi. Tuplanish fazasi bahorda yana davom etib, kuzatilayotgan turlarda 45-60 kun, ikkinchi yilda esa 50-55 kundan iborat bo'ldi.

Naychalash fazasi *Aeilops* turkumi turlarida 20-27 kun, *H. murinum subsp. leporinum* da 35 kundan iborat bo'ldi.

Boshoqlash fazasi kuzatuv olib borilgan yillarda eng qisqa 5-6 kun bo'lsa, eng uzoq vaqt 14-17 kun davom etdi. Bu fazaning yana shu tarafini aytib o'tish kerakki, birinchi galda asosiy poyalarda boshoqlar hosil bo'lgan bo'lsa, 2-4 kundan keyin yon tomondagi poyalar boshoqladi.

Gullash—generativ davrning asosiy fazasi hisoblanib, har ikkala kuzatuv yillarida ham u boshoqlash fazasidan 4-5 kun o'tgach boshlandi.

Havo harorati may oyining boshlarida +19,5...+21,4°C bo'lgan 2010 yilda gullash fazasida turlarning gullashi 6 kun davom etdi **Donning shakllanishi.** Gullash fazasidan keyin donning to'lishishi yoki shakllanishi boshlandi. Sut mum pishiqligigacha bo'lgan davr 7-9 kunni tashkil etib, keyingi sut mum pishish fazasi 10 kun davom etdi.


H. murinum subsp. leporinum turida bu davr eng qisqa, ya'ni 175 kundan iborat bo'lsa, *H. vulgare subsp. spontaneum* va *E. bonaepartis* turlarida eng uzoq - 208 kunni tashkil etdi.

Toshkent shahri ex-situ sharoitida turlarning o'sishi va rivojlanishiga bag'ishlangan uchinchi bo'limida Respublikamizning cho'l va adir hududlaridan

yig'ib kelingan turlarning urug'lar O'zMU Botanika bog'i sharoitida ekib o'rganilgan ma'lumotlar keltirilgan.

Toshkent shahri *ex-situ* sharoitida turlarning o'suv davri tahlil qilinganda eng qisqa davr *A. crassa* turida (192 kun) kuzatilsa, *H. murinum subsp. leporinum* va *T. intermedium subsp. intermedium* turlarida eng uzoq-200 kunni tashkil etganini qayd etish mumkin.

Andijon shahri *ex-situ* sharoitida turlarning o'sishi va rivojlanishi o'rganilgan to'rtinchi bo'limda Toshkent viloyati, Navoiy viloyati va Farg'ona vodiysidan terilgan urug'lar Andijon davlat universiteti Botanika bog'i tajriba maydonida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Turlarning o'sish va rivojlanish fenospektri

Andijon shahri *ex-situ* sharoitida turlarning umumiy o'suv davri bo'yicha xuddi Toshkent shahri sharoitidagidek eng qisqa muddatni *A. crassa* (193 kun)da kuzatilsa, eng uzoq muddatni *H. murinum subsp. leporinum* va *T. intermedium subsp. intermedium* turlarida (201 kun) qayd etildi.

Uch xil muhitning *ex-situ* sharoitida olib borilgan tajribalar natijasiga ko'ra aytish mumkinki, eng qisqa va eng uzoq o'suv davri Andijon sharoitida Toshkent sharoitiga nisbatan bir kun ortiqroq farq bilan namoyon bo'lmoqda. Bundan ko'rish mumkinki, Andijon va Toshkent shahri iqlim-sharoiti o'rtasidagi farqning kamligi bilan izohlash mumkin.

Ushbu bobning beshinchi bo'limida **Tabiiy sharoitda turlarning o'sishi va rivojlanishi** bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Tabiiy sharoitlarda turlarning o'suv davrining davomiyligi tahlil qilinganda, *ex-situ* sharoitiga nisbatan ancha farq qilganini ko'rish mumkin. Tabiiy sharoitda eng qisqa o'suv davri *H. vulgare subsp. spontaneum* ga to'g'ri keldi (193 kun), *H. bulbosum* turida esa eng uzoq o'suv davrini (205 kun) ko'rish mumkin (1-jadval).

Tabiiy sharoitda turlarning o'sishi va rivojlanish davrlari (o'rtacha)

t/r	Turning nomi	Vegetatsiya davrlari, kun						O'suv davri
		unib chiqishi	maysalashdan tuplanishgacha	tuplanishdan naychalashgacha	naychalashdan boshoqlashgacha	boshoqlashdan gullashgacha	gullashdan pishishgacha	
1	<i>A. cylindrica</i>	23.10	21	95	33	21	24	194
2	<i>A. triuncialis</i>	22.10	22	96	34	22	25	199
3	<i>A. crassa</i>	22.10	22	94	33	21	26	196
4	<i>H. bulbosum</i>	20.10	24	97	35	23	26	205
5	<i>H. murinum subsp. leporinum</i>	21.10	21	95	33	21	28	198
6	<i>H. vulgare subsp. spontaneum</i>	21.10	20	90	30	20	26	193
7	<i>E. repens</i>	21.10	23	95	34	22	25	199
8	<i>T. intermedium subsp. intermedium</i>	22.10	24	97	35	23	23	202
9	<i>E. bonaepartis</i>	20.10	22	96	34	22	27	201
10	<i>E. triticeum</i>	21.10	23	95	34	22	25	199

Yuqorida aytib o'tilgan *ex-situ* sharoitlarida esa ushbu turlarning o'suv davri oraliq xarakterda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

«**Turlarning madaniy sharoitda o'sishi va rivojlanishi**» nomli oltinchi bo'limda o'rganilayotgan *T. aestivum* va *H. vulgare* turlarining o'suv davri tahlil qilingan. Natijada 2014-2015 hosil yilida *T. aestivum* ning mahalliy «Asr» navi 223 kunda o'suv davrini yakunlagan bo'lsa, *H. vulgare* ning «Novosadski-525» navida bu davr 227 kun, mahalliy «Qizilqo'rg'on» navida esa 234 kundan iborat ekani ma'lum bo'ldi.

Ex-situ sharoitida o'suv davrining qisqarishini, turlarda ontogenezning u yoki bu bosqichiga havo haroratining ta'siri bilan ifodalaymiz.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**Gullash maromiga ekologik muhitning ta'siri**»ga bag'ishlangan bo'lib, unda boshoqdagi gullarning ochilish mexanizimi, gullash tiplari, chang sifati, sutkalik va mavsumiy gullash maromlari berilgan.

«**Gullash tiplari va chang sifati ko'rsatkichlari**» nomli birinchi bo'limda birinchi faza gul qipig'i ochilishining boshlanishidan to' ochilishning tugashi (OB dan OT gacha) «Novosadski-525» navida 1,5 daqiqa, «Qizilqo'rg'on» navida eng uzun – 1,7 daqiqani tashkil etgani bayon qilingan (2-jadval).


O'rganilgan navlarda gulning ochilish jarayoni

Navning nomi	Gullash fazalari va davomiyligi (daqiqqa)			
	OB dan OT gacha	OT dan YoB gacha	YoB dan YoT gacha	Umumiy gullash
<i>H. vulgare</i>				
Qizilqo'rg'on	1,7	3,7	5,7	10,7
Novosadski-525	1,5	3,5	5,8	10,5
<i>T. aestivum</i>				
Asr	1,4	3,6	5,4	10,2
Tanya	1,6	3,5	5,5	10,4

Ikkinchi faza–gul qipqlari ochilishining tugashidan gul qipig'i yopilishining boshlanishigacha (OT dan YoB gacha) bo'lgan davrda ham «Novosadski-525» navi – 3,5, «Qizilqo'rg'on» navida – 3,7 daqiqa davom etdi.

Gul qipqlari yopilishining boshlanishidan ichki va tashqi gul qipig'lari yopilishining tugashigacha (YoB dan YoT gacha) bo'lgan uchinchi davr «Novosadski-525» navida eng uzoq – 5,8 daqiqa ichida sodir bo'ldi.

Tadqiqot olib borilgan yillarda chang donachalarining sifati yuqori bo'lgan tur *H. vulgare subsp. spontaneum* (69,0; 65,1 %) va *E. repens* (69,2-68,8 %) hisoblansa, eng past ko'rsatkichda *T. intermedium subsp. intermedium* (44,2-46,8 %) va *E. triticeum* (51,3-52,4 %) ning natijalarini aytish mumkin (4-rasm).



4-rasm. O'rganilgan turlarda chang donachalarining sifati

Bobning ikkinchi bo‘limi «**Mavsumiy va sutkalik gullash maromi va unga ekologik muhitning ta’siri**» deb nomlangan bo‘lib, gullash maromlari har bir turda belgilangan boshloqlarda kuzatildi. Assman psixrometri yordamida havo harorati va nisbiy namligi har bir kuzatuv soatlarida o‘lchab borildi.


Mavsumiy gullash maromida har xil ekologik muhitda o‘rganilgan turlarning mavsumiy gullash davri yoritilgan.

Andijon viloyatining mo‘‘tadil-iqlim sharoitida kuzatuvdagi navlarning mavsumiy gullash davri 4 kundan 5 kungacha davom etib, akrobazepetal tartibda amalga oshgani aniqlandi (5-rasm).

Introdutsent navlar ichida Tanya navida ham gullash davri 5 kun davom etdi. Chunonchi, Tanya navida o‘rtacha 77 ta gul ochilib, shundan gullashning ikkinchi kunida eng ko‘p-37,7 % gullar ochilgani kuzatildi.

Qolgan kunlarda esa quyidagicha holat kuzatildi: umumiy ochilgan gullarning 24,6 % i gullashning birinchi kunida, 22,1 % i uchinchi kuni, 9,1 % i to‘rtinchi kuni, eng ozi beshinchi kuni, ya’ni 6,3 % gul ochildi.

Kuzatuvdagi introdutsent navlar ichida Tanya navining gullash davri ham 5 kun davom etib, eng ko‘p gullash (41,1 %) ikkinchi kunga to‘g‘ri keldi.



5-rasm. Mavsumiy gullash davrining sxemasi

- | | | | |
|---|---------------------------------|---|-----------------------------------|
|  | - birinchi kun ochilgan gullar; |  | - to‘rtinchi kun ochilgan gullar; |
|  | - ikkinchi kun ochilgan gullar; |  | - beshinchi kun ochilgan gullar; |
|  | - uchinchi kun ochilgan gullar; |  | - ochilmagan gullar. |

Gullashning sutkalik va mavsumiy jarayonini turli sharoitlarda o‘rganish shu narsani ko‘rsatdiki, o‘rganilgan barcha turlar asosan sutka davomida gullovchi bug‘doydoshlarga mansub bo‘lib, haroratning muqobil darajasi (+22 ...+25°C)li kunning salqin davrida maksimal gullash sodir bo‘lib, umumiy gullash davri 4-8 kun davom etdi. Mavsumiy gullashning eng yuqori darajasi gullash davrining 2-3-kunga to‘g‘ri keldi (3-jadval).

3-jadval

Navlarning mavsumiy gullash maromi (2014 y.)

Navning nomi	Gul soni, dona	Kunlar				
		1	2	3	4	5
Ochilgan gullar soni, foiz						
<i>H. vulgare</i>						
<i>Qizilqo‘rg‘on</i>	96	30,1	25,2	19,5	15,2	10,0
<i>Novosadski-525</i>	91	24,2	37,9	18,2	13,6	6,1
<i>T. aestivum</i>						
Asr	66	24,2	37,9	18,2	13,6	6,1
Tanya	77	24,6	37,7	22,1	9,1	6,3

Bu esa, ushbu turning evolyutsiya jarayonida ekstremal sharoitga to‘la moslasha olishi hamda ko‘payishi uchun juda ahamiyatli bo‘lib, adaptatsion belgi hisoblanadi.

Hordeum turkumi turlarida **sutkalik gullash maromi** o‘rganilganida quyidagicha natijalar olindi: *H. vulgare subsp. spontaneum* turida 28 ta boshqoqcha bo‘lib, shundan birinchi bo‘lib 14-12 va 9-boshqoqchadagi birinchi gullar ochilgan. Gullashning ikkinchi kunida sutkalik gullash maromi to‘laroq o‘rganilganda shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, gullarning maksimal ochilish darajasi bu turda bir oz farq qildi.



6-rasm. Oxangaron adirlarida *H. bulbosum* va *A. triuncialis* ning gullash davri

Qizilqum cho‘l stansiyasiga 2012 yildagi ekspeditsiyalarimiz davrida *Aegilops* turkumining 3 ta turi: *A. squarrosa*, *A. cylindrica*, *A. crassa* uchratildi. Xususan, *A. cylindrica* da boshqochalar soni asosan 7 ta bo‘lib, ayrim tuplarida 10 tani tashkil qildi. Gullash jarayoni esa akrobazipetal tartipda bo‘lib, asosan kunning salqin vaqtiga to‘g‘ri keldi. Gullash davri esa 4 kundan 6 kungacha davom etib, intensiv gullash davri gullashning 2-kuniga to‘g‘ri keldi (4-jadval).

4-jadval

Qizilqum sharoitida turlarining sutkalik gullash maromi (2012 y.)

Tur nomi	Gul soni, dona	Kunlik vaqt, soat							
		6:00	8:00	10:00	12:00	14:00	16:00	18:00	20:00
		ochilgan gullar soni, foiz							
<i>A. cylindrica</i>	44	19,2	12,1	8,8	7,8	7,5	10,3	18,1	16,2
<i>A. triuncialis</i>	28	18,1	15,3	7,6	6,2	6,5	8,0	19,8	18,5
<i>A. crassa</i>	32	19,0	14,5	9,0	7,5	7,1	9,6	18,2	15,1
<i>E. bonaepartis</i>	20	20,5	14,0	15,0	10,0	9,0	6,5	16,3	8,7
<i>E. triticeum</i>	23	21,3	18,7	14,3	9,5	8,8	10,3	13,3	3,8

Boshqodagi gullarning ochilish maromiga havo harorati va namlik sezilarli ta’sir qilargan ekan. Agar havo harorati ko‘tarilib namlik kamaysa, ochilgan gullar soni kamayadi va aksincha, harorat pasayib namlik oshsa, ochilgan gullar soni ortadi. O‘rganilgan navlar bizning iqlim sharoitimizda navning biologik xususiyatidan kelib chiqib sutka davomida gullaydigan o‘simliklar guruhiga kirishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi «*Triticeae* Dum. tribasi ayrim turlari urug‘larining biologiyasi va ekologiyasi» deb nomlanib, unda turlarning laboratoriya va dala sharoitida unuvchanligi hamda urug‘ mahsuldorligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi «Laboratoriya va dala sharoitida unuvchanlik ko‘rsatkichlari» deb nomlangan bo‘lib, tadqiqotlar natijasida urug‘larning unuvchanligi laboratoriya sharoitida *H. vulgare subsp. spontaneum* urug‘larida unuvchanlik yuqori (91 %) ekanligi ma’lum bo‘ldi.

2015 yilda kuzatilganda *A. cylindrica* 88 %, *A. triuncialis* da 77 %, *A. crassa* da 69 %, *H. bulbosum* da 92 %, *H. vulgare subsp. spontaneum* da 87 %, *H. murinum subsp. leporinum* da 94 %, *E. repens* da 96 %, *T. intermedium subsp. intermedium* da 91 %, *E. bonaepartis* da 72 %, *E. triticeum* da 77 % urug‘ undi.

Dala sharoitida turlarning unuvchanligi bo‘yicha *E. repens* (85 %) va *H.* unuvchanligining boshqa turlarga nisbatan past bo‘lishligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, *Hordeum* va *Elymus* turkumi turlarining unuvchanligi *Aegilops* va *Eremopyrum* turkumi turlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Laboratoriya sharoitida urug'larning unish energiyasi bo'yicha *A.cylindrica*, *H.murinum subsp. leporinum*, *H.vulgare subsp. spontaneum* eng yuqori ko'rsatkichda (80, 84, 82%) ekanligi aniqlandi (5-jadval).

Dala sharoitida unish energiyasi bo'yicha *A. cylindrica* (90 %) va *H. bulbosum* (84 %) yuqori bo'lsa, tularning ichida eng past natijani *H. vulgare subsp. spontaneum* (46 %) va *T. intermedium subsp. intermedium* (64 %) ko'rsatdi.

O'rganilayotgan navlar urug'ining laboratoriya sharoitida unib chiqish darajasi deyarli bir xil bo'lib, o'rtacha 92-93% ni tashkil qildi. Unib chiqish energiyasi yuqori bo'lgan navlar «Asr»-75, «Qizilqo'rg'on»-73 % ni tashkil qilgan.

Dala sharoitida navlarning unib chiqishi odatdagidek, biroz sekinroq hamda past darajadagi («Tanya»-80, «Asr»-82, «Qizilqo'rg'on» va «Novosadski-525»-81 %) ko'rsatkichni namoyon qildi. Dala sharoitidagi unib chiqish energiyasi buning aksi, ya'ni «Qizilqo'rg'on» navida 68 % bo'lsa, «Novosadski-525» navida 65 % dan iborat bo'ldi.

5-jadval

Laboratoriya sharoitida urug'larning unish energiyasi (2015 y.)

№	Turlar nomi	Unuvchanligi, %			%
		1-kun	2-kun	3-kun	
1	<i>A. cylindrica</i>	60	20	-	80
2	<i>A. triuncialis</i>	15	57	2	74
3	<i>A. crassa</i>	23	36	-	59
4	<i>H. bulbosum</i>	0	50	-	50
5	<i>H.murinum subsp. leporinum</i>	55	26	3	84
6	<i>H. vulgare subsp. spontaneum</i>	62	19	2	82
7	<i>E. repens</i>	3	25	16	44
8	<i>T. intermedium subsp. intermedium</i>	13	19	4	36
9	<i>E. bonaepartis</i>	12	28	3	43
10	<i>E. triticeum</i>	3	25	8	36

«Urug' biologiyasi» deb nomlangan ikkinchi bo'limida boshqoq yaruslari o'rganilgan. Mavjud urug'kurtaklarda hosil bo'lgan donlar soni, ya'ni real urug' mahsuldorligi o'rta yarusda ko'proq hosil bo'lgan (10,2 va 13,2 dona). Birinchi va uchinchi yaruslardagi urug'kurtaklar soni hosil bo'lgan don soniga mos holda nisbatan kamroq hosil bo'lgan.

Yaruslar orasidagi bunday o'zaro nisbatan 1000 dona urug' vaznida ham sezilib turibdi. Ya'ni, birinchi yarusda 10,0 g., uchinchi yarusda 9,5 g. bo'lsa, ikkinchi yarusda eng og'ir – 12,8 g.ni don ulushi mavjud.

Tabiiy sharoitda o'sayotgan turlarni o'rganish natijasida yovvoyi turlarni morfologik belgilari orqali boshqa turlardan oson ajratib olish imkonini beruvchi

dalillar aniqlandiki, bular hali adabiyotlarda keltirilmagan qo'shimcha ma'lumotlardir. Jumladan, *H. vulgare subsp. spontaneum* nafaqat boshoqcha qipig'ining uzunligi bilan, balki, barglarida tuklarning kam yoki umuman bo'lmasligi, gul qipig'ining o'lchami va shakli, urug'ining yirikligi kabi belgilari bo'yicha ham farq qilishini aniqladik.

Barcha o'rganilgan turlarning boshog'i oson sinuvchi asosga ega bo'lib, turli uzunlikda bo'ldi, ya'ni boshoq uzunligi 5 sm. dan 20 sm.gacha farqlandi. Jumladan, *H. murinum subsp. leporinum* bor-yo'g'i 3-6 sm.li boshoqqa ega bo'lsa, *H. bulbosum* 20 sm.ni tashkil etdi.

Eng ko'p tuplanish (170 tagacha poya) *H. vulgare subsp. spontaneum* va *H. murinum subsp. leporinum* da kuzatilsa, donlarning yirikligi bo'yicha *H. bulbosum* L. ustunlik qiladi (32-48 gr.)

O'rganilayotgan turlarning barchasida boshoqdagi donning pishib yetilishi bir vaqtga to'g'ri kelmasligi gullash akrobazipetal tartibda bo'lgani uchun urug'ning yetilishi ham shu tarzda amalga oshishi bilan izohlanadi. Boshoqdagi markaziy donlar birinchi pishsa, yuqori va pastdagi boshoqchalardagi donlar bir vaqtning o'zida navbat bilan pishib yetiladi. Navlarda gullashdan to urug' pishishigacha 30-33 kun o'tishi kuzatildi.

«**Turlarning turli ekologik sharoitlardagi urug' mahsuldorligi va unga muhitning ta'siri**» nomli oltinchi bobda turlarning biometrik ko'rsatkichlari hamda urug' mahsuldorligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning «**Turlarning biometrik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan birinchi bo'limida turlarning biometrik ko'rsatkichlarini o'rganish asosidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Bir tupdagi generativ poyalar soni asosiy ko'rsatkich hisoblanib, o'rganilayotgan turlarda eng ko'p generativ poyalar *H. bulbosum* va *H. vulgare subsp. spontaneum* da uchradi (32,8 dan 49,4 donagacha). Eng past ko'rsatkich *E. bonaepartis* va *A. triuncialis* da namoyon bo'ldi (2,6-3,2) (6-jadval).

Boshoqda hosil bo'lgan don soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich *A. triuncialis* (3,1 dona) va *A. crassa* (3,5 dona)da ekanligi jadval ma'lumotlarida ko'rinib turibdi. Bir tupdagi generativ poyalar soni $2,6 \pm 0,7$ donadan (*E. bonaepartis*) $49,4 \pm 2,1$ (*H. vulgare subsp. spontaneum*) donagacha ko'rsatkichni namoyon qilib, qolgan turlar oraliq natijaga ega bo'lgan.

Tabiiy sharoitda biz o'rgangan o'simliklar asosan yem-xashak xususiyatiga ega bo'lib, poya uzunligi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu borada eng yuqori natijani *H. bulbosum* (98,5 sm) da ko'rsak, eng past ko'rsatkich *E. triticeum* da (8,5 sm) aniqlandi.

1000 ta urug' og'irligi bo'yicha turlarning ko'rsatkichlari har xil chiqdi. Ayniqsa, eng yuqori natijalar *H. vulgare subsp. spontaneum* 30,2 g. va *E. repens* 33,1 g.ni tashkil qilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar *A. cylindrica* (3,5 g.) va *E. triticeum* (3,7 g.) ga tegishli ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlar asosida o'simlikning balandligi bo'yicha ularni 3 guruhga bo'lish imkoni paydo bo'ldi. Shunga ko'ra, past bo'yli bug'doydoshlarga *E. bonaepartis*, *E. triticeum*, *A. cylindrica*, *A. crassa*, *A. triuncialis* kiradi va ularning bo'ylari

o'rtacha 50 sm dan oshmaydi. *H.murinum subsp. leporinum*, *E. repens* va *T. intermedium subsp. intermedium* lar o'rta bo'yli bo'lib, ularning bo'ylari o'rtacha 70 sm ga etishi mumkin. Uzun bo'yli bug'doydoshlarga *T.aestivum*, *H. bulbosum* va *H. vulgare subsp. spontaneum* lar kiritildi va ularning bo'yi o'rtacha 1 metr va undan ham yuqori bo'lishi mumkin.

6-jadval

O'rganilgan turlarning biometrik ko'rsatkichlari, n=100

